



«NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA BOLALARDA IJODIY-KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH»

Ziyoda Baxovudinova

Toshkent shahar Bektemir tumani 348 - maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya; *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarda ijodiy-kreativ faollikni shakllantirish haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, nutq, nutq o'stirish mashg'uloti, ijodiy-kreativ faollik, kuzatuvchanlik, mashg'ulotga tayyorgarlik.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается формирование творческой активности у детей на занятиях по развитию речи дошкольного образования.*


Ключевые слова: *Дошкольное воспитание, организация дошкольного образования, речь, уроки развития речи, творческая деятельность, наблюдение, подготовка к урокам.*

Annotation: *This article discusses the formation of creative activity in children in the speech development classes of preschool education.*

Keywords: *Preschool education, preschool education organization, speech, speech development lessons, creative activity, observation, preparation for lessons.*

Hozirgi davrda Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. [1] Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" [2] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarning nutqini o'stirishga qaratilgan tizimli ishlarga innovatsion yondashish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'limda bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari belgilab qo'yilgan. Maktabgacha ta'limning har bir yosh guruhi uchun nutqni o'stirish vazifalari mavjud.





Maktabgacha ta'limda ona tilini o'qitish bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug'atni o'zlashtirish, nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha ta'limda guruhlar yoshi bilan bog'liqlikda mashg'ulotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Kichik yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir. Katta va tayyorlov guruhlaridagi mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarkib toptirib boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, mas'uliyat hissi takomillashtirib boriladi, ularda aqliy mehnat qilish malakasi va xohish-istagi tarbiyalanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar bolalarda ijodiy-kreativ faollikni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlarda bolalar o'quv faoliyati ko'nikmalari hosil qiladilar, ancha intizomli, uyushgan bo'lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, diqqatni bir narsaga qarata olish, irodaviy zo'r berilish qobiliyati rivojlanadi. Sistemali o'qish natijasida bilishga qiziqish paydo bo'ladi.

Bolalarni jamoada o'qitish muayyan afzalliklarga ega: birgalikda ishda ular bir-birlariga faol ta'sir etadilar, tashabbus, fahm-farosat ko'rsatish imkoniga ega bo'ladilar.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolaning faol harakatlanish bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotlarni ijodiy tashkil qilishda bolaning yoshi, imkoniyatini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, mashg'ulotning vaqti, kun tartibidagi o'rni, dasturning har bir bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur. Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqiqa davom etishi "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilab berilgan. [3]

Mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazish jarayonida bolalarda maktabga va o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalari, mas'uliyat hissi, ishchanlik, o'zini tuta bilish, ishda zo'r berish odati hosil qilinadi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarda ijodiy-kreativ faollikni shakllantirishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ta'limning samarali metod-usullaridan foydalanilsa, bunda bolani yosh, ruhiy fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, ta'lim berishning samaradorligi oshadi.

Mashg'ulotning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va bolalar imkoniyatlariga moslashtirilmagan mashg'ulot sifatli bo'la olmaydi. Mashg'ulotni tashkil qilishga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta'minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.





Tarbiyachining mashg'ulotni tashkil qilishga tayyorgarligi quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish). Shu bilan birga tarbiyachi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, mashg'ulotni erkin olib borishga erishishi lozim. Mashg'ulotga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ulotning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxis qilish bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda bolalarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, mashg'ulotning tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash bo'lajak mashg'ulotni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.


Loyihalashtirish (rejalashtirish) bolalarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u mashg'ulotga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyachi mashg'ulotning texnologik modeli va kartasini ishlab chiqishi lozim. Mashg'ulot loyihasi qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda to'tilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Mashg'ulot loyihasi an'anaviy rejadan boshqarishga doir ta'sir ko'rsatishlarning aniq va tushunarli belgilab olinishi, kutiladigan natijalarning oldindan aniqlanganligi bilan farq qiladi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlashda, unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish zarur.

Nutq o'stirish mashg'ulotlari nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash, savodga tayyorgarlik kabi vazifalarni bajaradi.

Nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar asosan, bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish va savodga tayyorlashda tarbiyachiga va ota-onalarga yordam berish maqsadida tayyorlanadi. Mashg'ulot mavzusining mazmuni mashg'ulot davomida bolalarda grammatik mashqlar, turli interfaol o'yinlar yordamida mustahkamlanadi.

Mashg'ulot ishlanmalaridagi vazifa: bog'langan nutq, grammatika, lug'at, tovush madaniyati, savodga tayyorgarlik vazifalari o'zaro uzviy bog'liq holda olib borishga harakat qilindi. Bu ish uslubi bolalarning dastur vazifalarini tezroq egallashlariga yordam beradi. Mashg'ulot ishlanmalari bolalarni mustaqil hikoya tuzish, rasmga qarab tarbiyachi bergan mazmun asosida hikoyalar tuzish va qayta hikoya qilish va savodga tayyorlashga





o'rgatishga qaratiladi. Unda bolalarning mustaqilligi va faolligini oshirish maqsadida har xil ta'lim - tarbiyaviy ish usullaridan: o'yin: ta'limiy, sahnalashtirilgan; og'zaki: suhbat, savol-javob, hikoya qilish, tushuntirish, bahs-munozara; ko'rgazmalilik: rasmni ko'zdan kechirish, kuzatish, sayr, sayohat; amaliy: mashq qildirish, amaliy topshiriq, taqqoslash kabilardan foydalaniladi, ular yordamida mustahkamlanadi. [4]

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarda ijodiy-kreativ faollikni shakllantirishda yuqoridagi ish usullaridan uyg'un holda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Binobarin, nutq o'stirish mashg'ulotlarida ni bolalarda ijodiy-kreativ faollikni shakllantirish uchun uning maqsad, vazifalarni aniq belgilash, ta'lim natijasini qayd eta olish, ta'lim materialining to'liq o'zlashtirilishiga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son
3. Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi.- Toshkent, 2018.
4. Леонтьев А. Н. Психическое развитие ребенка в дошкольном возрасте / Возрастная и педагогическая психология: М.: Изд-во Моск. ун-та, 1992. С. 42-50.

